



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol.5 Issue01 | pp. 60-67 | ISSN:2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

KICHIK BIZNES KORXONALAR IQTISODIYOTI

Mamatkulova Nodira Maxkamovna

TAQU, Menejment kafedrası dotsenti

Akramov Ruslan G'ayrat o'g'li

TAQU, BB(MBA)o'-24 guruh magistranti



Annotatsiya: kichik biznes korxonalari iqtisodiyoti — iqtisodiyotning o'ziga xos va muhim segmentini tashkil etadigan kichik hajmdagi tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini o'rganadigan soha hisoblanadi. Ushbu maqola doirasida kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishga qo'shgan hissasi, uning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'zni va ahamiyati, shuningdek, kichik biznesni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan sharoitlar va imkoniyatlar tahlil qilinadi. Kichik biznes ko'pincha o'zining moslashuvchanligi, innovatsion yondoshuvlar va yangi ish o'rinlarini yaratishdagi imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu korxonalar ko'plab ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal etishda muhim rol o'ynaydi, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda. Kichik biznesning iqtisodiy ahamiyati shundaki, u keng miqyosdagi sanoat va qishloq xo'jaligi sohalaridan tortib, xizmatlar va savdo sektorigacha bo'lgan turli sohalarda yangi ish o'rinlarini yaratish va raqobatbardoshlikni oshirishda ishtirok etadi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash mumkin.

Kalit so'zlar: kichik biznes, iqtisodiyot, barqaror o'sish, iqtisodiy tengsizlik, moliyaviy resurslar.

Abstract: The economics of small businesses is a field that studies the activities of small-scale business entities, which constitute a unique and important segment of the economy. This article analyzes the contribution of small businesses to economic development, their role and importance in the country's economy, as well as the conditions and opportunities necessary for the development of small businesses. Small businesses are often distinguished by their flexibility, innovative approaches and the ability to create new jobs. These enterprises play an important role in solving many social and economic problems, especially in developing countries. The economic importance of small businesses is that they participate in creating new jobs and increasing competitiveness in various sectors, from large-scale industry and agriculture to the services and trade sectors. The relevance of the topic is that by supporting small businesses, it is possible to ensure sustainable economic growth, reduce economic inequality and strengthen social stability.

Keywords: small business, economy, sustainable growth, economic inequality, financial resources.

Аннотация: экономика предприятий малого бизнеса – область, изучающая деятельность субъектов малого предпринимательства, составляющих уникальный и важный сегмент экономики. В данной статье анализируется вклад малого бизнеса в экономическое развитие, его роль и значение в экономике страны, а также условия и возможности, необходимые для развития малого бизнеса. Малый бизнес часто отличается гибкостью, инновационными подходами и возможностями создания новых рабочих мест. Эти предприятия играют важную роль в решении многих социальных и экономических проблем, особенно в развивающихся странах. Экономическое значение малого бизнеса заключается в том, что он участвует в создании новых рабочих мест и повышении конкурентоспособности в различных отраслях: от крупного промышленного и сельскохозяйственного сектора до сферы услуг и торговли. Актуальность темы заключается в том, что, поддерживая малый бизнес, можно обеспечить стабильный рост экономики, снизить экономическое неравенство и укрепить социальную стабильность.

Ключевые слова: малый бизнес, экономика, устойчивый рост, экономическое неравенство, финансовые ресурсы.

Kirish

O'zbekistonning iqtisodiyoti so'nggi yillarda jadal o'sish sur'atlarini ko'rsatmoqda. Biroq, ushbu o'sishning barqaror va uzluksiz bo'lishi uchun iqtisodiyotning turli segmentlarida chuqur o'zgarishlar zarur. Ushbu o'zgarishlarning muhim qismi — kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan siyosatlar bilan bog'liq. Kichik biznes O'zbekiston iqtisodiyotining muhim qismini tashkil etib, milliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va hududiy tengsizlikni kamaytirish kabi maqsadlarni amalga oshirishda katta rol o'ynaydi.

Kichik biznes — bu o'zining o'lchami, faoliyat doirasi va resurslaridan kelib chiqqan holda iqtisodiyotning kichik, ammo muhim bo'lgan korxonalarini o'z ichiga oladi. Ushbu korxonalar ko'plab odamlarni ish bilan ta'minlab, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal etishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston uchun kichik biznesni rivojlantirish, ayniqsa, viloyatlarda iqtisodiy faollikni oshirish, mahalliy resurslarni samarali ishlatish va innovatsiyalarni joriy etish uchun zarurdir.

O'zbekiston hukumati kichik biznesni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu maqsadda turli yengilliklar, soliq imtiyozlari va davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Masalan, soliq va kredit siyosatidagi islohotlar, kichik biznes uchun maxsus kreditlar va subsidiyalar, shuningdek, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash markazlarining tashkil etilishi kichik biznesni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridir.

Biroq, kichik biznesni rivojlantirishda hali ham bir qator muammolar mavjud. Ular orasida yengil kredit olishdagi qiyinchiliklar, bozorlarda raqobatning kuchayishi, mahsulotlarni sotish kanallarining cheklanganligi, innovatsion va texnologik salohiyatning pastligi kabi muammolarni ko'rsatish mumkin. Shuning uchun kichik biznesni rivojlantirish uchun qo'shimcha qo'llab-quvvatlash, samarali boshqaruv tizimlarini yaratish, shuningdek, biznesning zamonaviy talablar va raqobat sharoitlariga moslashuvchanligini ta'minlash kerak.

Shu nuqtai nazardan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi"da tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va barqaror daromad manbalarini yaratish uchun sharoitlar yaratish, shuningdek, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish maqsadi belgilandi. Bu maqsadga erishish uchun bir qator muhim vazifalar amalga oshirilishi kerakligi ko'rsatilgan[1]

Materiallar va tadqiqot usullari

Kichik biznes sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyati uning iqtisodiyotda raqobat muhitini ta'minlash, yirik korxonalar uchun mahsulot va xizmatlar yetkazib berish, yangi ish o'rinlarini yaratish va ikkilamchi bandlikni ta'minlash, bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish, ilmiy-texnik inqilobni jadallashtirish, resurslarni ishlab chiqarishga safarbar etish; soliq tushumlari hajmining o'sishini ta'minlash, aholi daromadlari darajasini barqarorlashtirish kabi omillar bilan belgilanadi.

Adabiy manbalarda shuni ko'rishimiz mumkinki, ba'zi tadqiqotchilar "biznes" tushunchasini "tadbirkorlik" bilan tenglashtiradi. Biz ham bu nuqtayi nazarga qo'shilib, maqolamizda kichik biznesga nisbatan "tadbirkorlik" so'zini sinonim sifatida ishlatishni maqbul deb hisoblaymiz.

Ba'zi mualliflarning fikricha, "biznes" tushunchasi "tadbirkorlik" tushunchasidan yanada kengroqdir. Masalan, F.I. Shaxmatov va V.S. Nechiporenkolar biznesni daromad keltiradigan har qanday iqtisodiy faoliyat sifatida ta'riflashgan. Tadbirkorlik faoliyati esa ishlab chiqarish omillarining yangi kombinatsiyalarini yaratish sharoitida o'ziga xos biznesga aylanishi va daromadni kapitalga aylantirib, foyda ko'rinishidagi moliyaviy muvaffaqiyatga erishish maqsadida boshqariladigan tizim sifatida tushuniladi[2]

O'zbek olimlarida B.Sh. Akbarova esa tadbirkorni quyidagicha ta'riflaydi: "Tadbirkor" – bu o'zining cheklangan moliyaviy resurslarini tavakkal qilib, bozorga yangi g'oya, mahsulot, xizmat yoki ishlarni olib kiradigan ishbilarmon shaxsdir[3].


Bu holat shundan iboratki, kichik biznes tizimida samarali taqsimot tizimini yaratish orqali markazlashtirilgan va rezerv fondlarining tashkil etilishi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish imkoniyatlarini yanada mustahkamlashga erishish imkonini beradi. Shu bilan birga, turli soliq imtiyozlarining joriy etilishi orqali kichik biznesning kelgusi rivojlanishiga qulay iqtisodiy sharoitlar yaratiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholini ish bilan ta'minlash hamda o'rta sinfni shakllantirishdagi roli xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik korxonalar iqtisodiy o'sish, ilmiy-texnikaviy yangiliklarni yaratish va aholining talablarini qondirishda katta istiqbolga ega. Boshqaruv sohasida kichik korxonalarda xarajatlar minimal bo'lib, mulkning haqiqiy egasining qo'lida bo'lishi, uning foydalanilishi va ko'paytirilishi doim yaxshi natijalarga olib keladi.

Shu fikrlarga asoslanib va o'z tadqiqotlarimizdan kelib chiqib, kichik biznesni quyidagicha ta'riflash mumkin: kichik biznes – bu cheklangan sonli xodimlarga ega bo'lgan, yirik kompaniyalar bilan solishtirganda kamroq daromad keltiradigan xususiy kompaniya yoki yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidir. Kichik biznes odatda kichik miqyosda ishlaydi va resurslari cheklangan bo'lsa-da, ish o'rinlari yaratish va mahalliy jamiyatlarga qo'shgan hissasi orqali iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda kichik va xususiy tadbirkorlik deyarli barcha sohalarda shakllanib, rivojlanmoqda. Shu asosda, respublika hukumati ko'p qirrali iqtisodiyotni yaratish va bunda xususiy mulk, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikka asosiy e'tibor qaratishni "strategik vazifa" sifatida belgiladi. Bunga sabab, O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari, rivojlangan qishloq xo'jaligi va xom ashyo bazasi, shuningdek, xalqimizning turmush tarzini va tafakkurini inobatga olgan holda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va kelgusida rag'batlantirish borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida, joriy yilning yanvar–dekabrida 38,2 mingdan ortiq kichik biznes (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) sub'yektlari tashkil etildi yoki 2016 yilning 2017-yil oxiriga nisbatan 122,0 foizga ko'paydi. Mazkur kichik biznes sub'yektlarining eng ko'p qismi sanoat tarmog'ida (27%), savdo sohasida (21%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (13%) va qurilishda tarmog'ida (10%) tashkil etilgan. Ushbu jarayoni quyidagi tahlillardan ko'rishimiz xam mumkin.



Manba: Osiyo taraqqiyot banki kichik va o'rta biznes sub'ektlari monitori (2023)

1-rasm. Kichik biznes va o'rta biznes sub'yektlarida bandlar (umumiy bandlardan foizlarda), %da. [4]

Ushbu diagrammani tahlil qiladigan bo'lsak, respublikamizda kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik aholi bandligini ta'minlashda yetakchi o'rinni egallamoqda. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik aholi bandligini ta'minlashda o'rtacha 71% ga to'g'ri kelmoqda.

Natijalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sohalardagi ulushini ko'tarish uchun albatta bu respublikada faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni muhim ahamiyatga ega. 2023-yilda respublikamizda faoliyat olib borayotgan kichik biznes subyektlari soni 523556 tani tashkil qilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2022-yilda 462834 tani tashkil etgan. Bu raqamlardan ko'rishimiz mumkinki bir yilda respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 60722 taga oshgan, bu esa juda yaxshi[5]

Ko'plab iqtisodchi olimlarning fikrlarini tahlil qilib va o'z mulohazalarimizni hisobga olgan holda, kichik biznes korxonalarini quyidagi asosiy funktsiyalarni bajarishini xulosa qilamiz:

- Aholining moliyaviy va ishlab chiqarish resurslarini jalb qilish;
- Raqobat muhitining shakllanishiga yordam berish;
- Ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning muhim yo'nalishlarida yangi innovatsiyalar yaratish;
- Aholi bandligini ta'minlash;
- Talabning yangi qirralarini yuzaga keltirishga imkon yaratish.

Shuningdek, kichik korxonalarining hammasi faoliyatini davom ettirmasada, ular iqtisodiyotning barcha shakllariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, kichik biznes korxonalarini bozor muhitini yaxshilash, ijtimoiy ishlab chiqarish tizimlarida o'zgarishlar qilish va O'zbekistonda hozirgi kunda dolzarb bo'lgan muammolarni hal qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratishga qodir deb aytish mumkin.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining investitsion loyihalarini moliyalashtirishni yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

- Banklar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi mahsulotidagi ulushini oshirish maqsadida sohaga kredit ajratish mexanizmini takomillashtirishlari kerak;
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini faoliyatini rivojlantirish uchun xorijiy kredit liniyalaridan mablag'lar jalb qilishni kengaytirish;
- Iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi kichik biznes korxonalarining barqarorligini reyting usuli orqali baholashni yanada yaxshilash zarur;
- Kichik biznes subyektlarining tadbirkorlik risklarini sug'urtalashni takomillashtirish maqsadida, davlat sug'urta kompaniyalarining ustav kapitalini davlat mablag'lari hisobidan oshirish va ushbu mablag'larni sug'urta qoplash summalarini sifatida samarali ishlatish;
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, kelajakda ishlab chiqarish va eksport tarkibida tezkor va o'zgarishlarga moslashuvchan tarmoq sifatida iqtisodiyotda yetakchi o'rin egallashlari kerak;
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik zamonaviy texnik baza va sifatli infratuzilma asosida rivojlanishi lozim, bunda maxsus markazlar, lizing kompaniyalari tarmog'i va har tomonlama servis xizmati tizimini kengaytirish zarur[6].

Shunday qilib, kichik biznesni rivojlantirish davlat siyosatining iqtisodiyotning barcha sohalarda, ayniqsa, qishloq xo'jaligida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Kichik biznes tarmog'i mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimining barqaror rivojlanishini

ta'minlab, ko'plab ish o'rinlarini yaratadi, shu orqali qishloq aholisining ijtimoiy ta'minotini yaxshilaydi, raqobat muhiti yaratadi, iste'molchilarni yangi tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlaydi hamda yirik biznesning rivojlanishiga yordam beradi.

Kichik biznes turli sohalarda, jumladan, chakana savdo, oziq-ovqat va ichimliklar, professional xizmatlar, ishlab chiqarish va texnologiyalarda faoliyat yuritadi. Ular odatda ma'lum bir bozorga ixtisoslashgan mahsulot yoki xizmatlarni taqdim etadi va ko'proq shaxsiy va mahalliy xarakterga ega. Kichik biznes cheklangan kapital, yirik kompaniyalar bilan raqobat, hamda hukumat aralashuvi kabi qiyinchiliklarga duch keladi. Biroq, ular o'zgaruvchan bozor sharoitlariga tez moslashish qobiliyatiga ega bo'lganligi sababli, moslashuvchanlikka ega va yirik korporatsiyalar uchun muammo bo'lishi mumkin bo'lgan masalalarni (mijozlar bilan ishlash, xodimlar bilan munosabatlar va boshqalar) osonlik bilan hal qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Umuman olganda, kichik biznes sog'lom iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, innovatsiyalarni joriy etish, ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ular tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi va bozorning xilma-xilligi hamda raqobatbardoshligini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish uchun ularning raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun, kichik korxonalar o'zlarining mahsulot yoki xizmatlarini xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli sotish uchun kerakli strategiyalarni ishlab chiqishlari lozim.

Chora-tadbirlar:

- Kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish uchun jahon bozorlarida trendlarni o'rganish va yangi mahsulotlar ishlab chiqish.
- Mahsulotlarni innovatsion jihatdan yaxshilash, to'liq xususiyatlarini o'zgartirish va yangi texnologiyalarni o'zlashtirish.
- Bozor talablari va standartlariga javob beruvchi mahsulotlar ishlab chiqarish orqali eksportga moslashtirish[7].

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish va ularning eksport salohiyatini oshirish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bu nafaqat kichik biznesni rivojlantirish, balki mamlakatning iqtisodiy o'sishiga, yangi ish o'rinlari yaratishga va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar bu jarayonda katta ahamiyatga ega.

Innovatsiyalarni joriy etish va mahsulot sifatini oshirish

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsion yondashuvlarni joriy qilish juda muhimdir. Yangi texnologiyalar, yuqori sifatli mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarish nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro bozorda ham raqobatbardoshlikni oshiradi.

Chora-tadbirlar:

- Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va yangi mahsulotlar ishlab chiqish uchun kichik korxonalariga qo'shimcha moliyaviy resurslar ajratish.
- Yangi mahsulotlar va xizmatlar sifatini oshirish uchun maxsus dasturlar va texnologik ta'minot yaratish.

• Kichik biznesni xalqaro standartlarga moslashtirish va xalqaro sertifikatlar olish jarayonini soddalashtirish[8]

Xulosa

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Ular yangi ish o‘rinlarini yaratish, raqobatni oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va iqtisodiy o‘shishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatish bilan birga, tashqi iqtisodiy faoliyatda ham katta salohiyatga ega. Kichik biznesning eksport salohiyatini oshirish, xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatlarini yaratish va tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan bo‘lib, bu jarayonni amalga oshirish uchun bir qator chora-tadbirlarni qo‘llash zarur.

Davlat tomonidan kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, yangi bozorlarni egallash, mahsulot va xizmatlarni xalqaro standartlarga moslashtirish, logistika va tashqi savdo tarmoqlarini rivojlantirish kabi chora-tadbirlar kichik korxonalar uchun muhim imkoniyatlarni yaratadi. Innovatsiyalarni joriy etish, texnologik yangilanishlarni amalga oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kichik biznesning raqobatbardoshligini oshiradi va eksportga yo‘naltirilgan faoliyatni kuchaytiradi.

Shuningdek, kichik biznes subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish orqali mamlakatning iqtisodiy o‘shishi, xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish va yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish mumkin. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tashqi iqtisodiy faoliyatda muvaffaqiyatli ishtirok etishi uchun davlat tomonidan samarali qo‘llab-quvvatlash tizimi, innovatsiyalarni rivojlantirish, soliq va moliyaviy imtiyozlar tizimi, shuningdek, xalqaro bozorda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish zarurati mavjud.

Umuman olganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish va eksport salohiyatini oshirish nafaqat kichik korxonalarining o‘zini rivojlantirish, balki mamlakat iqtisodiy o‘shishini ta‘minlash va global bozorlar bilan yanada integratsiyalashish uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <https://lex.uz/docs/-5841063>. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Грубенкова Д.О. Предпринимательство в теориях Р. Кантильона, Маркса, Веблена и Шумпетера: сравнительный анализ // Международный студенческий научный вестник. – 2016. – № 2 5
3. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy iqtisodi, O‘zbekiston Prezidentligidagi statistika agentligining choraklik nashri. Toshkent- 2023.
4. R.Ubayev, S.G‘ulomova. Har bir yangi kichik va xususiy tadbirkorlik subyekti O‘zbekiston iqtisodiyotini o‘rtacha 100 ming dollarga oshiradi. 09.02.2024y. <https://proreforms.uz/>
5. B.Sh. Akbarova, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o‘rni. Toshkent-2021.

6. Boutillier, S. (2019). Small entrepreneurship, knowledge and social resources in a heavy industrial territory. The Case of EcoInnovations in Dunkirk, North of France. *Journal of the Knowledge Economy*, 10, 997-1018
7. Xodiyev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N., Muxiddinova U.S. Kichik biznesni boshqarish. –T.: O'qituvchi, 2003.
8. Xodiyev B.Yu. va boshqalar. Kichik tadbirkorlik asoslari(o'quv-amaliy qo'llanma)-T.:yeH. TeMPUS "Konsaudit", 2004.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

